



## O'ZBEK JADID ADABIYOTI NAMUNALARIDA INTELLEKTUAL QAHRAMON ANTIPODI TASVIRI VA ESTETIK IDEAL

**Z.I.Mirzayeva**

F.f.d., prof.

ToshDO'TAU huzuridagi PKQTMOTM direktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17379526>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek jadid adabiyoti namunalarida intellektual qahramon antipodi tasviri va estetik ideal haqida so'z yuritiladi

Bir qator tadqiqotchilar badiiy asardagi ijobiy obrazlargina estetik ideal darajasiga ko'tarilishi mumkin, degan fikrni ilgari surdilar. Biroq, N.Gey va V.Piskunovlar ta'kidlaganidek, "Estetik ideal faqat ijobiy qahramon obrazi bilan chegaralanib qolmaydi, chunki u badiiy voqelikni, jumladan, personajlarning o'zaro munosabatlari va harakatlarini, ularning bir-biriga bo'lgan o'zaro "xohishlari" va bir-biridan "qochishi"ni to'liq qamrab oladi.

Dilmurod Qur'onov buni ijodkor idealiga zid obrazlar tarzida beradi. Demak, bunday tipdagi obrazlar o'z vaqtida, ma'lum ma'noda, ideal darajasiga ko'tarilgan. Masalan, milliy qadriyatlar asosida dunyoqarashi shakllangan e'tiqodi mustahkam ziyoli sifa-tida Behbudiy fohishabozlikning millat payini qirqadigan illat sifatida qoralaydi. Cho'lponning esa bu boradagi qarashlari boshqacharoq. Yozuvchi intim munosabat masalasiga turli jixatlar-dan yondashadi. Masalan, Noyib to'ra, erkak kishi bitta ayolga qa-noatlanmaydi. Lekin buning uchun nikoh o'qitib, mas'uliyatni zim maga olish mutlaqo shartmas, deb hisoblaydi va shariat asosida to'rtinchi xotinni olgan Akbarali mingboshini orqavoratdan "Axmoq?"-deydi. Noyib to'ra nazdida, erkin muhabbat voqelikka ko'chgani ma'qul.

O'zbek adabiyoti tarixi, madaniyati, adabiy siyosati va uning tarjimalari borasida tadqiqotlar olib borayotgan amerikalik olimlarning eng keksa vakili, tadqiqotlari ko'lami jihatidan yetakchilik qilgan Edvort Olvort ilk bor "Padarkush"ning to'lali gicha ramziy asar ekanligini isbotladi va dramaning Markaziy Osiyo xalqlari adabiyoti, siyosati tarixining rivojlanishidagi o'r-nining yana bir pogona ko'tarilishiga asos yaratdi. U amalga oshirgan tahlil usuli: drama syujeti, obrazlari, har bir kichik detal, ismlar etimologiyasi, qotillikda aks etgan ramziy mohiyat millatni ildiz-ildizidan yo'q qilish, quritish bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy g'oyaning original tadqiqi "Padarkush"da aks etgan tarixiy haqiqatning aniq tahlili va to'g'ri bahosi edi. Rus kishisi obrazlarida mujassam davr haqiqatining ramziy ifodasi va uning Edvort Olvort tomonidan tadqiq qilinishi drama nafaqat o'z davri, balki Turkiston xalqlarining bugungi kunigacha mavjud muammolar aks etgan ma'naviy xazina ekanligini isbotladi. Chunki Edvort Olvort o'zbek olimlari e'tiboridan nisbatan chetda qolgan jihatlar ramziy obrazlarda aks etgan ichki mohiyat sirlarini tadqiq etib, mazkur drama jadid adabiyotining eng yaxshi namunasi ekanligini ko'rsatib berishi bilan birga, mazkur dramaga "zaif asar" qabilidagi qarashlarning butunlay noto'g'ri ekanligini isbotladi va Behbudiy ijodidagi yangi konsepsiyalarni ochib berdi.

Edvort Olvort Bahbudiyning "Padarkush" dramasi-dagi Liza obraziga nisbatan o'z munosabatini quyidagicha bildiradi: "Badiiy asardagi rus obrazi muallifning siyosatdagi tajribasi va ijtimoiy rahbar sifatidagi qobiliyatini aks ettirishda vosita bo'lgan. Behbudiy Liza obrazida, barcha e'tiqodli musulmonlarga yot bo'lgan, ayollarini jirkanch illatlardan himoya qiladigan va uyda saklaydigan, ularda nafrat, jirkanchlik uyg'otadigan, tipik obrazni kashf

qildi", deb yozadi. Ko'rinadiki, olim obrazni baho-lashda muallif dunyoqarashi va asar yaratilgan davrdagi xalq psi-xologiyasiga asosiy diqqat qaratadi. Dramaning ma'rifiy-maishiy targ'ibotni ko'zlovchi sahna asari ekanligini nazarda tutadi. Adib Xolidning Liza obrazi haqidagi fikrlari esa quyidagicha: "Tragediyaning asosiy ildizi, shubhasiz, bilimsizlik. Shunisi muhimki, dramadagi jamiki harakatlar Liza sabab bo'lgan nafs balosi atrofida mujassamlashadi. Ushbu obraz dramaning oxirgi ko'rinishida juda qisqa epizodlarda paydo bo'lsada, u o'lim va qotillikka sabab bo'lgan asosiy obrazlardan biridir".

Demak, E. Olvort va A. Xolidning "Padarkush"dagi Liza obrazi haqidagi fikrlari o'zaro yaqin, bir-birini to'ldiradi. Ular asardagi "qotillik" atrofiga jiplashgan mavzu, g'oya, obrazlar ha-rakatini to'g'ri aniqlab, muallifning drama mohiyatiga singdirgan ramziy ma'nolarni tadqiq etgan. Amerikalik jadidshunoslar dramadagi "qotillik", ya'ni "Padarkush" (otasini o'ldiruvchi) metafora, badiiy tasviriy ko'chim, majoziy-ramziy obraz, degan xulosaga kelgan Turk olimi Temur Xo'ja o'g'li Edvard Olvortning tadqiqotlari asosida "Ota qotili" asaridagi rus odami obrazlaridagi ramziy tushunchalar mohiyatini o'rgangan. Drama rus pristavining jinoyatchilarga "Kelinglar, qamoqxonaga yuringlar!" degan buyrug'i bilan tugashi. xalq uchun ogohlantirishdir. Ya'ni, bolalar o'qimasa, o'qimasa, chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati ostida qolib, o'zidan oldingi avlod kabi baxtsizlikka mahkum bo'ladi. Ular yo qamoqqa tashlanadi, yo Sibirga surgun qilinadi.

Temur Xo'ja o'g'li Pristav ishtirokidagi voqelik mohiyatini to'g'ri tahlil qilib, dramadagi yana bir yashirin mohiyatni tadqiq etishga erishgan. Nazarimizda, "Padarkush"dagi ramziy obrazlar-ning joylashish o'rnida ham yashirin mohiyat mavjud. Shu nuqtai nazardan, dramaning rus Pristavi hukmi bilan yakunlanishi ham tasodif emas. Millat taqdiri begonalar qo'lida, ular xo'jayin, nimani xohlasa, shuni qiladilar.

Pristavchor mustamlakachilarining ramzi; jinoyatga qo'l urib, Pristav qo'lga tushgan yoshlar Tangriqul, Toshmurod, Dalat fojiasi Turkiston kelajagining bosqinchilar tomonidan vayron qilinganligining ramziy ifodasidir.

Qatag'on siyosati qurboni bo'lgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon o'zining "Kecha va kunduz" romanida chor mustamlakachilari orqali kirib kelgan Yevropa madaniyati va sivilizatsiyasining mohiyatini, ularga bo'lgan munosabatni ma'lum bir voqelik asosida xolisona baholashga harakat qilgan. Shuningdek, Mariya (Maryam) Ostrova obrazini modernistik obraz sifatida talqin etish ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

Mariya yosh rus ayoli, yaxshi oila farzandi bo'lgan. Bir xiyonat sa-bab u fohishalik ko'chasiga kirib, "bir yarim ming so'm pul" ortti-rishni, so'ngra yiroq bir mamlakatga ketib, u yerda hayotini yangit-dan boshlashni reja qilgan. U Toshkentdagi nomerlardan birida Akbarali mingboshi qo'lida xizmat qiladigan Miryoqub "zakonchi" bilan tanishadi. Bu "osiyolik xaridor" Mariyani sevib qoladi va unga uylanadi. Hatto notanish yo'lovchi-jadid maslahatiga ko'ra, birinchi xotinidan orttirgan yolg'iz o'g'il farzandini ham o'z onasi bag'ridan tortib olib, Mariya Ostrova tarbiyasiga beradi.

O'zbek adabiyotshunosligida Cho'lpon ijodi, xususan, "Kecha va kunduz" romani monografik planda, yangicha tahlil metodlari aso-sida o'rganilgan. Xususan, olim Dilmurod Quronovning nomzod ilmi, ma'naviyatli, lekin ayrim kusurlardan xoli bo'lmagan ayol afzalmi? Yoki bu voqelik zamirida uning yana boshqa bir g'oyaviy maqsadi yashiringanmi?

Qayd etilgan savollar, bizningcha, kat'iy yechimga ega bo'lmagan bahstlab masalalardir. Ilmsiz odamning hech kimga foydasi tegmasligi rost. Ilmli kishi esa jamiyatga, millatga foyda kelti radi. Aynan shu ziyolilar millatni asrab qoluvchi, dunyo muvozana-tini saqlab qolish vazifasi yuklatilgan shaxslardir. Shu jihat-dan qaralganda, "Kecha va kunduz" romanidagi rus ayoli chindan ham murakkab obrazlardan biri. U muxtojlikdan, pul topish maqsadida fohishaxonaga tushib qoladi. Fohisha. Lekin ilmli, ma'rifatli va ma'naviyatli ayol. U jamiyatda na siyosiy, na ik tisodiy kategoriyaga ega, lekin muallif bu rus ayoli obrazi orkali nafaqat muayyan millat, balki barcha zamonaviy ayollarning ham re-al vaziyat sabab jiddiy muammolar girdobiga tushib qolishini ij timoiy hayot qonuniyatlariga mos tarzda ifodalash yo'lidan boradi. Shuningdek, Miryoqub xarakterining shakllanishini ham aynan shu personaj ta'siri bilan bog'liqlikda inkishof etadi. "Padarkush" va "Kecha va kunduz" romanlaridagi Liza va Mariya Ostro-va obrazlari zohiran qaralganida, fohisha sifatida tasvir etilsa ham, dastavval, har bir asarning janr talablari, mualliflarning ko'zlagan maqsadi, u yoxud bu asar mohiyatida tutgan o'rniga ko'ra, ular bir-biridan farqlanadilar. Ayni paytda, har birining talay betakror xususiyatlari ham mavjud.

Mariya Ostrovaning nomerga kelib qolishi shartlilik va va-ziyat taqozosi. O'z sodda mantig'iga ko'ra: «Unga bir yarim ming so'm pul kerak, shuni topadi, so'ngra yiroq bir mamlakatga ketadi». Muallif mana shu aniq vaziyat asosida Mariya Ostrova obrazida ayollarning ichki dunyosi, psixologiyasi, ruhiy holati, hatto o'y fikrlarini ham ishonarli tarzda ifoda etadi. Mazkur obraz boti-niy nutqi orqali uning xarakteriga xos og'ir, vazmin ma'naviy dunyosini ham ko'rish mumkin. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, u o'z ijtimoiy-tipologik qobig'iga o'ralashib qolmagan ayol obrazi-ning o'ziga xos namunasi. Cho'lpon estetik ideallari romanida aks etgan badiiy makonga aynan shunday, ya'ni nisbatan mujaddid ayol obrazini olib kirishni taqozo qilar edi. Binobarin, Mariya Cho'lpon mantigiga ham mos tarzda tasvirlangan. Behbudiydan farq-li o'laroq, Fitrat va Cho'lpon milliy qadriyatlarga erkin yondashgan. Ular tamaddun va "sartlar" orasidagi to'siqlarni olib tashlamoqchi bo'lganlar.

Cho'lpon ruslarning "taraqqiyparvar xalq" qiyofasini o'zida mujassam etgan. U masalaning mohiyatini to'g'ri tushunadi, rostdan ham, ruslarning "mutaraqqiyligi" Yevropaning kuchli davlatlari ..... "farangilar" ta'siri bilan chambarchas bog'lanadi. Fitrat "kuchli millat" tushunchasini farangi tilidan bayon qilib bergan edi. Tarixga nazar tashlasak, inqilobiy harakatlarni ruslar farangilar-dan o'rganishgan. Parij Kommunasi inqilobiy harakatlarning yaq-qol ta'siri timsoli bo'lgan edi. Oybek esa "Kutlug kon" romani-dagi erkinlik g'oyalarini, ma'lum ma'noda, ruslarga bog'lagan edi.

Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon Yevropa sivilizatsiyasiga yakdil munosabatda bo'lganlar. Har uch jadid adabiyoti vakillari ham yevropaliklarni faranglarni uddaburon el ekanliklarini ta'kidlashadi va yevropaliklardan o'rnak olishga da'vat etadilar. O'sha uddaburonlik ijtimoiy hayotning barcha qat-lamlarida aniq ko'rsatiladi. Jadid yozuvchilarining fikricha, mil liy ong jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchdir. Milliy ong esa dunyodagi ilgor mamlakatlardan o'rganish hamda millat yakdilligi samarasi o'laroq, voqelikka ko'chadi. Ana o'sha chorlov natijasida XX asrning 20-yillarida o'zbek adabiyotida yevropaliklar obrazi paydo bo'lgan edi. Bu yanglig' harakat toki O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgunicha, turli shakl-shamoyil kasb etib turdi Mustaqillik davriga kelib, fikrlar



plyuralizmi va diniy tolerantlikning kuchayishi natijasida inson shaxsiga bagrikengli bilan yondashuv kuzatiladi.